

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA'LIM**

**TA'LIM YO`NALISHI IV BOSQICH TALABASI**

**XABIBULLAYEVA RAVSHANOYNING**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI.**

**Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimiy lashuvda maktabgacha ta'limga muassasalarining o'rni.**

**Ilmiy rahbar:**

**F.Saidova.**

**Andijon-2016**

## **Reja**

### **Kirish.**

#### **I-BOB. Muammoning nazariy va amaliy metodologik asoslari.**

1.1. Jahon psixologlari tadqiqotlarida ijtimoiylashuv muammosining tadqiq etilishi..

1.2.Ijtimoiylashuvning psixologik xususiyatlari

1.3. O`zbekistonda ijtimoiylashuv muammolarini o`rganilishi.

#### **II.BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimiylashuvda maktabgacha ta`lim muassasalarining o`rni.**

2.1. Ijtimoiylashuvda maktabgacha ta`limmuassasalarining o`rni.

2.2. Yoshlarning ijtimoiylashuvini shakllanishida ijtimoiy psixologik omillar.

#### **III bob. Olingan natijalarni psixologik taxlili va umumlashtirish.**

3 Shaxs ijtimoiylashuvini baholash metodikalari.

3.2.Olingan natijalarni taqqoslash psixologik taxlili va umumlashtirish

## **Xulosa**

### **Tavsiya**

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

## **KIRISH.**

**"Kelajakda O`zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilan emas balki bilimdon, ma'naviy jixatdan etuk farzandlari bilan ham jaxonni qoil qoldirishi lozim".**

**I.Karimov**

O`zbekistonda uzlusiz ta`lim tizimiga o`tilgandan so`ng psixologiya fanini rivojlantirishga ham juda katta e`tibor berilmoqda. Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tadbiqiylar muayyan darajada umumlashtirilgan. XX asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda tashkiliy psixologiya sohasi yuzasidan bir talay izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu soha alohida yo`nalish sifatida vujudga kelsada, lekin aslida u amaliy psixologiyaning aks ettirish xususiyati bilan boshqalardan muayyan tarzda tafovutlanib turadi, xolos. Dunyo mamlakatlari amaliyotida psixologik xizmatni tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari, mazmuni, tarkibiy qismlari to`g`risida muhokama qilinayotganida, uning tuzilishi, ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga oid faoliyat turlariga ta`lluqli tomonlari qamrab olinishi nazarda tutilgan edi. Yoshlarning ijtimoiylashish jarayonlarini o`rganish asosiy omillar muammolaridir. Bu esa bugungi kunning dolzarb masalalasi xisoblanadi

Yuqorida aytib o`tilganlar bilan bir qatorda, O`zbekistonda yoshlarni o`zaro munosabatlarni shakllantirish muammosining dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan ham belgilanadi.Dastavval, shuni ta`kidlash kerakki, bizning amaldagi ta`lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamонавиј тараққијот топган демократик давлатлар талабларга ювоб бера олмаслиги көр юйларда якъял көринмоқда.<sup>1</sup> Bugungi кунда баркамол авлод тарбијаси, о`кувчиларни қобилиятін сизиқшылары ва лаюоqатини

---

<sup>1</sup> I.Karimov, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008. 56-b.

o`rganib, keyingina ularni ijtimiylashishi, bilimlarga jalb etish, ta`lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo`layotgan islohat, yangilanish jarayonlari, talablari bilan yaqindan bog`langanligi har tomonlama sezilmoqda

Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta`lim muassasalarda, o`quvchilarni layoqat va qiziqishlarni shakllantirish va shu asosda ularni guruhdagi ishlarini ilmiy tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik muhofaza imkoniyatlarni tadqiq qilishga oid maxsus o`tkazilgan tadqiqotlarning nihoyatda tanqisligi; ijtimoiy psixologiya, etnospixologiya fanlarida bugungi ko`rsatish jarayoni amalga oshirilib kelsada va ayni paytda, O`zbekistonlik psixolog-olimlar tomonidan ilg`or psixologiya ilmining hayotga amaliyotga tadbiqiga oid qator yakunlangan tadqiqotlar, ko`rsatmalar, tavsiyalar mavjud bo`lsa-da, o`quvchilarni qiziqishlarini to`la o`rganib, ularni yo`naltirish zarurligi muammolariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi bugungi dolzARB muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin. Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning hamda egasi—sub`ekti hamda ob`ekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiyligi psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo`limlarida ham o`rganiladi. Har bir bo`lim yoki tarmoq uni o`z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo`lgan muammolarni yoritadi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o`ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo`ladigan turli shakldagi o`zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya`ni, ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a`zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo`ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta`sirlari uning ongida qanday aks topishini o`rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta`siri qay yo`sinda sodir bo`lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya, ya`ni ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bog`liq bo`lsa, bu ta`sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo`lishi ijtimoiy yo`l-yo`riqlar muammosi bilan bog`liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli

tipdagi shaxslarda namoyon bo‘lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

**Mavzuning dolzarbligi:** Yoshlarning ijtimoiylashuvida mакtabgacha ta`lim muassasalarning o`rni bugungi kunda dolzarb muammo hisoblanib, uning oila, mакtabgacha ta`lim muassasasi, mahalla, munosabatlarning ta`sirini o`ргanish dolzarbdir.

**Bitiruv malaka ishining o`ргanilganlik darajasi.** Tadqiqot ishining mavzusi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo`lib xisoblanganligi uchun bir qator olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz mazkur mavzu yuzasidan izlanishlar olib borganlar va bormoqdalar. Jumladan professor E.E.Goziev tomonida yaratilgan «Yosh davrlari psixologiyasi», professor Sh Baratov tomonidan yaratilgan «Bolalar psixologiyasi», G.Shoumarov «Oila psixologiyasi», V.M.Karimova tomonidan yaratilgan «Ijtimoiy psixologiyasi asoslari» nomli o`quv qo`llanmalari yoshlarning ijtimoiylashish jarayonlarini takomillashtirish va bilish faolligini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** Yoshlarning ijtimoiylashuvida mакtabgacha ta`limmuassasalarning o`rni va ularni bola rivojlanishiga ta`sirini o`ргanish.

**Tadqiqotning metodlari** sifatida konfliktogen omillar va ularning dinamikasini tizimli o`ргanishga yo`naltirilgan psixodiagnostik va korreksion metodlar majmuidan foydalanildi. Bular; a) maqsadli kuzatish; b) og`zaki ko`rsatmalarni yig`ish va ularni tahlil qilish (suhbat, anketa, yozma hisobot shakli); v) sotsiometriya; g) test-so`rovnama; d) aks ettirilgan sub`ektlilik metodi; ye) olingan natijalarini matematik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot ishining predmeti:** Yoshlarning ijtimoiylashuvida mакtabgacha ta`lim muassasalarning ijtimoiy munosabatlari va ularni bola shakllantirishning pedagogik uslub va vositalari.

**Tadqiqot ishining obekti:** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar shaxsi Bazasi: Buloqboshi tumani 9- mактабгача та’лим музассаси тарбияланувчилари

**Tadqiqotning metodologik asosini** O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, “Kadrlar tayyorlash” milliy dasturining asosiy tamoyili va yondashuvlari, “Ta’lim to’g’risida” gi qonun hamda ta’lim soxasini rivojlantirishga oid boshqa davlat xujjalari, SHarq va G’arb mutafakkirlarining ijtimoiy falsafiy va ijtimoiy - pedagogik ta’limotlari, zamonaviy pedagogik uslubiy konsepsiysi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi shundan** iboratki; agar maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi jarayonida guruhda tarbiyaviy maqsadga muvofiq tashkil qilinsa, o’quvchilarda faol fuqarolikpozitsiyasi, ijtimoiy ma’suliyat, oilaparvarlik jamoviylilik va boshqa zarur ijtimoiy sifatlar rivojlantirilsa, ma’naviy- axloqiy sifatlar singdirilib borilsa, kasb tushunchasi, kasb korga oid axloqiy me’yorlar tizimli shakllanib borsa, ijtimoiy faol fuqaroni tarbiyalash jarayonida samarali natijalarga erishish mumkin.

**Bitiruv malaka ishining yangilik elementlari sifatida** jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi jarayonida shaxs omili, uning ijtimoiy axloqiy me’yorlarini shakllantirishda maktabgacha tarbiya mussasalarini o’rganish.

**Tadqiqot ishining metodlari:** kuzatish metodi, eksperiment metodi va so‘rovnama.

**Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati:** Bolani shaxs sifatida ijtimoiylashuvidagi guruhnинг та’сирини о’рганиш орқали ular psixik faoliyatiga rivojlanish xususiyatlariga oqilona yondoshish

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati:** Ilmiy ishdan kelib chiqqan xulosa va tavsiyalarga ko‘ra bolalarning ijtimoiylashish jarayonlarini ularni ijtimoiylashuv o‘choqlarini та’сирини ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash va ular asosida tavsiyalar ishlab chiqish

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

- o'quvchilar jamoasi omilini, shaxsni jamoada tarbiyalash orqali, ularda ijtimoiy sifatlarni shakllantirish jarayonining nazariy, falsafiy, pedagogik va psixologik jixatlarini o'rganish.
- "shaxs" va "jamiyat" tushunchalarini falsafiy pedagogik va psixologik jixatdan taxlil qilish.
- Tadqiqot mavzusiga oid idmiy-nazariy, ilmiy –uslubiy manbalarni tahlil qilish.
  - Tadqiqot metodlarini belgilash.
- Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolani tarbiyalash orqali ijtimoiy sifatlarni shakllantirish jarayonini pedagogik uslublar orqali ijtimoiy sifatlarni shakllantirish jarayonini pedagogik uslublar orqali o'rganish va umumlashtirish.
- Pedagogik tajriba va sinov o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rgazmalar ishlab chiqish.

## **I-BOB. Muammoning nazariy va amaliy metodologik asoslari.**

### **1.1. Jahon psixologlari tadqiqotlarida yosh davrlariga xos xususiyatlar muammoining tadqiq etilishi.**

Bolaning ijtimiy lashuvi haqidagi fikrlar juda sodda bo‘lishiga qaramay, ular bola taraqqiyoti haqida muhim ahamiyat kasb etar edi. Ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari uzoq o‘tmishga, ko‘p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega edilar. O‘rta Osiyoni markazida joylashgan O‘zbekiston SHarqning eng qadimiy, madaniy uchoqlaridan biri bo‘lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo‘shgan. Xorazmlik olim al Xorazmiy nomi «algoritm» degan termin orqali, Evropada Alfrachanus nomi bilan mahshur bo‘lgan olim Ahmad al Farg‘oniy «Astronomiya asoslari» asari bilan bizgacha etib keldi. Abu Rayhon Beruniy ijodidida «Tana va Rux» ga oid hodisalar talqin qilindi. U odamlar o‘z tabiatini jihatidan bir-biridan farq qilishini, bu farq uning mijozni, fe’l atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo‘lishini ta’kidladi. U inson hayotini biologik va irsiy omillar bilan bog‘laydi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Farobiy insonning ruhiy jarayonlari bilan fiziologik jarayonlari orasidagi bog‘liqlik, dunyoni bilish haqidagi ta’limoti bilan shuhrat qozondi. U axloqiy sifatlar tug‘ma bo‘lmay, balki mashqlar, ko‘nikma va malakalar, odatlar natijasi deb uqtiradi. Bu erda iordaning ahamiyati o‘lkanligini, uning yordamida kishi o‘zida hissiy va ma’naviy ehtiyojlarni ongli ravishda tanlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi deydi.

Farobiyning ta’limoti Ibn Sino qarshilarining shakllanishiga kuchli ta’sir qiladi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi asab va asab yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida fikr yuritadi. U bola tarbiyasiga alohida e’tibor berdi va jismoniy tarbiya sog‘lom va tetik insonni shakllantirishning muhim omili ekanini, bolaning tug‘ilgandan boshlab, bolalikdan o‘smirlilikka o‘tish davrida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni tavsiya etdi. Ibn Sino atrof-muhit va

organizm orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olib, har bir a’zo uchun maxsus mashqlar majmuasini tuzdi.

Shuningdek, Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilik» asarida eng komil, jamiyatning talablariga javob beradigan insonni tarbiyalash, A.Jomiy asarlarida («Tuxfatul axror») ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rgatish, yoshlarda yaxshi hislatlarni, odoblilikni shakllantirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Axmad Yassaviyning mehr-sahovatli bo‘lishi haqidagi qarashlari, Imom al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosabatlar, Baxovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyoqarashning shakllanishi, A.Navoiy faoliyatida ilmiy ta’lim –tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida ahamiyatlidir. Ular ijodida aynan bolalarda ruhiy jarayonlarning paydo bo‘lishi yoki shakllanib borishi haqida batafsil fikr yuritilmagan bo‘lsa ham ularning shaxs xalovati haqidagi fikrlari bolalarda ruhiy jarayon va xususiyatlarni shakllanishi uchun imkon yaratadi. Turli yoshdagi bolalar psixologiyasi o‘z taraqqiyoti tarixida uzoq mashaqqatli davrni boshidan kechirdi. Turli yoshdagi bolalar psixikasi xususiyatlarini muayyan tartibga solish va uni ilmiy tarzda tushuntirib berish bola psixikasi taraqqiyotining turli yosh davrlariga taalluqli xususiyatlarni, dalillarni to‘plashni talab qilar edi. Bunday dalillar faqat fanni g‘ayri ilmiy tarzda tushuntirishga olib kelar edi. Chunki olimlarning, pedagoglarning o‘tmishdagi falsafiy yo‘nalishlari g‘ayri ilmiy ruhda bo‘lgan

O‘tgan ajdodlarimiz ijtimoiy psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo‘nalishda, ma’lum konsepsiya asosida o‘rganmagan bo‘lsalar ham, allomalarining asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to‘rt xil manbalarda uchraydi. Ularning biri - xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; ikkiichisi - maxsus ijodkor kishilar muayyan shaxsga bag‘ishlab yozgan o‘gitanasihat va hikoyatlar; uchinchisi - qomusiy, O‘rtal Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to‘rtinchisi - turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya’ni badiiy asarlardir.

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi. Dastlabki ijtimoiy psixologik mazmundagi asarlar

XVII-XVIII asrlarda diniy-ahloqiy negizda yozilgan edi. Rus sotsiologlari G.P.Predvechniy va Yu.A.Sherkovinlarning "Sotsial psixologiya" kitobida esa uning predmeti"... ob'ektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir", — deb hisoblaniladi. Bu mualliflar ijtimoiy psixologiyaning barcha o'rganish ob'ektlarini sharhlar ekanlar, ko`prok sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar. Ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsini ta'riflashga aynan psixologik yondashuv A.V.Petrovskiy va V.V.Shpalinskiylarning «Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi» kitoblarida bayon etilgan.

Bu mualliflarning fikricha, «Ijtimoiy psixologiya — psixologiya fanining shunday tarmog`iki, u turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlarning muloqati, o'zaro ta'sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalarni o`rganadi.» Rossiyada G.I.Rossolinoning «Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi» laboratoriysi ishga tushdi. «Tarbiya xabarlari», «Rus muktabi», «Erkin tarbiya», «Kundaliklar» kabi jurnallar chop etila boshlandi. Ana shuning zamirida «Oila tarbiyasi qomusi» dunyo yuzini ko'rdi. Bularning barchasi shaxs psixologiyasi va differensial psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi.

Yuqorida aytilgan asarlarda idealistik qarashlarga xayrixohlik ijtimoiy muhitning ahamiyatiga ehtiborsizlik ko'zga tashlanadi. Ularda insonning ijtimoiy mavjudotligi tan olinib, unga ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashilsada, insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqlananmaydi, tashqi muhitni bosh omil deb tushuntiriladi. Rus fiziologiyasining otasi I.M.Sechenov psixikaning reflektor xususiyatini kashf qilib, shuningdek

<sup>1</sup> Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya asoslari». Toshkent. «Sharq», 1994 58-bet

bilish jarayoni, inson his-tuyg'usi, o'zini o'zi (o'zini) anglashining fiziologik mexanizmini tushuntirishi fan olamida keskin o'zgarish yasadi. I.P.Pavlov kashf etgan qator qonuniyatlar, xossalari, ikkinchi signallar tuzilmasi eksperimental ishlarni olib borishga puxta zamin hozirladi. I.M.Sechenov, I.P.Pavlov g'oyalariga

asoslangan P.O.Efrusi, N.Ribakov, K.N. Kornilov, P.P. Blonskiy, L. S. Vigotskiy va boshqa olimlar yosh psixologiyasi bo‘yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar va yangidan-yangi qonuniyatlarni yaratdilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda yosh psixologiyasi va pedagogik Psixologiya fanlarida ilmiy tadqikotlarga asoslagan qaqrar asarlar paydo bo‘ldi. Amerikalik psixolog U.Djems «O‘qituvchilar bilan psixologiya to‘g‘risida suhbat» (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni chuqur tahlil qildi. K.Byuler xonim(1879-1963) o‘zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari(instinkt, dressura, intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izchil o‘rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvchi g‘oyalar, nazariyalar yuzaga keldi. Masalan, amerikalik psixolog S.Xoll(1844-1924) Gekkelning evolyutsiya qonuniyatini psixologiyaga bevosita ko‘chiradi. Uning fikricha, irsiyat filogenezni ontogenetika takrorlaydi, xolos

Fransuz psixologi E.Dyurkgsim(1858-1917) o‘sish-kishilarning his-tuyg‘usini o‘zlashtirish ekanini, shu boisdan idrok qilingan tashqi fikrlar va emotsiyalar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bola tajriba, anhana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutishini uqtiradi. E.Dyurkgsimning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘iladi.

Fransuz psixologi P.Jane (1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug‘ullandi.

Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi nissonning o‘sishini belgilaydi, u aloqa deb, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi. Psixologlarning

fikricha, G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar ijtimoiy ustanovkalarni o`zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo`lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o`zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo`ladi. Shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro`yobga chiqarish sharoitida faollik ko`rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko`rsatgan. Bu sifatlarni ba`zi mualliflar perceptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A.Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo`luvchi sifatlar"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog`liq bo`lib, shaxsning turli sharoitlarda to`g`ri muloqotga kirishish imkoniyatinp beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o`ziga xos tarzda dunyonи, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamrok xatolarga yo`l qo`yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o`zgalarning ichki dunyosini gaplari, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandnr. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi Ayniqsa bu borada psixolog olimlar M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G`B.Shoumarov, E.G`oziev, N.A.Sog`inov, B.M.Umarov kabilarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O`zbekistonda o`tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar V.Karimova, G`Shoumarov katta ijlanishlar olib brogan.

<sup>1</sup> Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya asoslari». Toshkent. «Sharq», 1994 62-bet

## **1.2.Ijtimoiylashuvning psixologik talqini.**

Har birimizning jamiyatdagi o`rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo`lgani, jamiyatga qo`shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializaqiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o`zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo`shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta`sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko`rsatishi va kerak bo`lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o`z navbatida o`zgalarga ta`sirini o`tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o`rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko`rsatilayotgan ta`sir oddiy, mexanik tarzda o`zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub`ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta`sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o`quvchidan iborat akademik litsey o`quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o`qituvchilarining berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o`quvchining har biri shu ta`sirlarni o`zicha, o`ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o`quv ko`rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o`sha biz yuqorida ta`kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o`zaro bog`liq va o`zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro`y beradigan shart - sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (boqcha, maktab, maxsus ta`lim o`choqlari, oliygohlar, mehnatjamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi. Bu

institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o`ziga xosdir.

Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «qush uyasida ko`rganini qiladi» degan maqol bor. Ya’ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta’sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o`zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o`ynaydi.

Shuning uchun bo`lsa kerak, ba’zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya’ni mahalla bilan mahallaning ham farqi

bo`lib, bu farq odamlar psixologiyasida o`z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya’ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqli, sarishtali bo`lib yetishishlariga ko`maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko`cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o`xshash normalar tizimi har bir ko`cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo`layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta’sirini ko`rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o`choqlariga maktab va boshqa ta’lim maskanlari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyqunlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta’lim oladigan, bola bilimlar tizimini o`zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma’naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman mакtabdagi shart-sharoitlar, umumiyl muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o`qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko`zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o`qituvchining o`zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub’ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o`quvchilarga munosabati

hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o`quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergen o`qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o`qituvchining ta`siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o`ynaydi. Ba`zi sinflarda o`zaro hamkorlik, o`rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo`lga qo`yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o`z a`zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo`naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o`ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo`lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo`lib, shu muhiddagi ijtimoiy normalar harakteriga ta`sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o`zaro munosabatlar muhiti ta`sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o`sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o`zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo`lib, ko`p incha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o`rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, soqlom ma`naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o`ynaydi.

Shaxs sotsializatsiyasi to`g`risida gap ketarkan, aytish kerakki, sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo`lib, u — individning ijtimoiy muhitga qo`shilishi, ijtimoiy ta`sirlarni o`ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo`lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta`sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o`z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro`y beradi, chunki individda shaxs bo`lishga ehtiyoj hamda shaxs bo`lishiga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning

uchun ham bola tug`ilib, ijtimoiy muhitga qo`shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo`lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsiyal muloqotga ehtiyojning borligi).

Shaxs sotsializatsiyasi yoki shakllanishining o`z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faaliyat sohasi, ya`ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalg etilgan bo`lib, bu jarayonda faoliyatlar jabxasi, soxasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko`nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo`lidagi aktivligi unda o`ziga xos ijtimoiyi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o`smirlig davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo`ladi, jamiyatda o`z o`rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) o`z-o`zini anglash sohasi, ya`ni "Men" obrazining yil sayin o`zgarib borishi jarayoni bo`lib, avval o`zini boshqalardan farqlilagini, o`zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so`ngra esa o`z-o`zini baholash, anglash, nazorat qilish- xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining ushbu bosqichlari mavjud. Masalan, birinchi bosqich—mehnat faoliyatigacha bo`lgan bosqich bo`lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o`qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o`ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta`sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o`tiladi. Ikkinci bosqich — mehnat faoliyat davri — bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog`liq bo`lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta`sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo`lib, aniq hayot yo`lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo`ladigan

barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchibosqich — mehnat faoliyatidan keyingi davr bo`lib, bunga asosan aktiv mehnat faoliyatidan so`ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko`ra shaxs strukturasida ham xususiy o`zgarishlar ro`y beradi.

Bu jarayon ro`y beradigan sharoitlar — muassasalar xususida gapiriladigan bo`lsa, turli davrlarda oila, bolalar muassasalari, maktab, boshqa dargohlari, mehnat jamoalarining roli nazarda tutiladi.

Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o`zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo`lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o`zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo`ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro`yobga chiqarish sharoitida faollik ko`rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko`ramiz. Ya`ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o`zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo`ladigan hamda muloqotda ko`rinadigan sifatlar guruhiga bo`linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perceptiv himoya sifatlari, ya`ni o`ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo`lgan ijtimoiy ta`sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba`zi mualliflar perceptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta`sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A.Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo`luvchi sifatlar"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog`liq bo`lib, shaxsning turli sharoitlarda to`g`ri muloqotga kirishish imkoniyatinp beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o`ziga xos tarzda dunyonи, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamrok xatolarga yo`l qo`yishini ta`minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o`zgalarning ichki dunyosini gaplari, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va

boshqalar shular jumlasidandnr. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi. Ekstrovert va introvert toifali shaxslarBu tiplar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko`ra farqlanadi. Masalan, ekstrovert — o`ta muloqotga kirishuvchan, o`zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojidir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o`z fikr-istiklarini o`rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo`lish emas, umuman kim bilan bo`lsa ham muloqotda bo`lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin ("Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?", — deb uylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o`zgarib turadi, do`stlari, o`rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o`ta kirishuvchan bo`lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to`g`risida tez xulosaga keladi, o`ta qiziquvchan, dunyoda bo`layotgan hodisalar, "mish-mishlar"ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo`lmaqdan apoq-chapoq bo`lib ketishi mumkin. Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko`proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko`radi, ya`ni yolg`izlikda mulohaza yuritish, o`zi haqida o`ylash va shunga o`xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustakovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo`ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo`lib turadigan ziddiyatlardan cho`chiydi, o`zini olib qochadi. Agar muloqotda bo`ladigan bo`lsa, 2—3 kishidan ortiq bo`lmagan guruhni afzal ko`radi. Shunda ham har kuni emas, ba`zan-ba`zan uchrashib turish, gaplashganda ham "shaxsiy" mavzularda emas, umumiyl gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko`radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o`z "Men"ining boshqalarga o`xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo`lsa ham shug`ullanishga tayyor, umr yo`ldoshiga sodiq, vafodor. Do`stlarga ham xuddi shunday. Mobil va rigid toifali

shaxslar. Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish me'zoniga ko`ra farqlanadi.

Masalan, mobil tip har qanday ish bilan mashg`ul bo`lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko`chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o`zgaradi. Suhbat mavzusinn ham tez-tez o`zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo`lsa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qatiyatli, dadil bo`lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko`chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladn. Chunki u o`ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo`lagiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo`lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o`zi gapirganda, sekin, mantiqan to`g`ri gapirishni yaxshi ko`radi, gapini bo`lishlarnni sira istamaydi. Agar suhbatni bo`lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo`ya qolishni afzal ko`radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo`lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko`radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Dominant va tobe toifali shaxslar. Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo`lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko`rsatishi, uning bo`ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o`zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo`yniga olmaydi. Dominant tip — qatiyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo`lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo`lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo`yishi mumkin.

Agar ikkala suhbatdosh ham dominant bo`lishsa, unda ular o`rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallahib qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko`nish, unga o`z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Tobe tipli shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallahadi, lekin yomon ko`rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin o`zining dadillagini ko`rsatishi, ochiq gaplashishi, ba`zan e'tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni rag`batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko`zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo`llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo`lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo`yniga olishni istamaydi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini ko`ramiz. Hayotda ko`pincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni tiplarga bo`lamiz. Bundan tashqari, bir marta ko`rishda odam haqida xulosa chiqarib bo`lmaydi. Uni turli sharoitlarda bir necha marta kuzatish lozim.

<sup>1</sup> Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya asoslari». Toshkent. «Sharq», 1994 77-bet

### **1.3. O`zbekistonda ijtimoiylashuv muammolarini o`rganilishi.**

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha isloxtlarning hal

qiluvchi omilidir. O‘zbek xalqi urf-odatlari, qadriyatlari o‘ziga xos noziklik bilan hakllanganki, ularda uzoq vaqt jarayonida ma’naviyat va boshqa insoniy xislatlari ustuvor bo‘lib kelgan. Bu fazilatlar asrlar osha bizgacha yetib kelgan va bugungi kunda ham o‘z mohiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shu sababli ota-onas farzandlar o‘rtasida ijobiy munosabatlar, o‘zaro hurmat-izzat, mehr-oqibat ma’naviyatning asosini tashqil etgan. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari quyidagilar, yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli-hunarli qilish, uyli – hovli joyli qilish. Bu xususiyat sohibqiron Amir Temur faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. «O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasli-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasli-nasibasi, odob-ahloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim», - deydi.

Farzand tarbiyalash bolaning ona qornidalik davridan boshlab muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo‘lajak inson shaklanishi shu davrlardayoq boshlanadi. Xalqimizda ba’zan insonga yosh berganda ona qornidagi 9 oyni ham e’tirof etib aytishlari bejiz emas. Albatta, ota-onas farzandi to‘g‘risida sog‘lom fikr yuritib uni ardoqlashi, sevishi, qayg‘urishi darkor. Ular bolani unga ta’sir qiladigan har qanday nojo‘ya harakatdan himoya qilganlar. Bu esa uning yaxshi xulqli, ma’naviyatli bo‘lishiga olib keladi. Demak ma’naviyat inson faoliyati jarayonida emas balki, ona qornidayoq shakllana boshlaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bolaning ona qornida rivojlanishi murakkab jarayondir. Uning rivojlanishi ona qornidagi fiziologik holatga ham bog‘liq. Bola ona qornida rivojlansada u tashqi muhit ta’sirida ham bo‘ladi. Shuning uchun bu tashqi ta’sirni ijobiy bo‘lishini ta’minalash zarur. Mutaxassislarining ko‘rsatishicha, sog‘lom tug‘ilgan bolaning o‘rtacha og‘irlik vazni 2,8-3,5 kg, bo‘yi esa 45-52 sm. bo‘ladi. U olti oyga yetganda esa uch barobar ortadi. Bir yoshli sog‘lom bolani og‘irligi 9 kg yetadi.

Bir yosh atrofida bolaning vazni va bo‘yi tez o‘sadi. Agar bola bir yoshgacha 25 sm.ga o‘sib ulyoaysa, keyingi ikki yil davomida 18 sm ga o‘sar ekan. Bu holatda rivojlanish bolada ma’naviy xislatlarni yaxshi shakllanishiga yordam beradi.

Tarixdan ayonki sharq xalqlari, ayniqsa o‘zbeklarda insonlarning ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda, bolalarning axloqiy tarbiyasida ota-onaning, erkak va ayollarning o‘rni, ularning xulq-atvorining shakllanishi va rivojlanishida mahalla, qishloq jamoasining o‘rni katta bo‘lgan. Ma’lumki bolalar yoshlidan kattalar safiga qo‘shilishga intilganlar. O‘g‘il bolalarning erkaklar safiga qo‘shilishida yosh xususiyatlar muhim bo‘lib, besh yoshdan so‘ng bolalar jamoaning mustaqil a’zosi sifatida oilaviy turmushda, marosimlarda mustaqil qatnasha olganlar. Tadqiqotlar tarixan Respublikamizning turli mintaqalarida bolalarning yosh va jins xususiyatlariga ko‘ra o‘ziga xos mehnat taqsimoti tarkib topganligini ko‘rsatdi.

Ayniqsa qizlar tarbiyasida jamoa ko‘nikmalaridan tashqari shaxsiy jihatlar ham tarkib topib, ular ma’lum yoshdan so‘ng xo‘jalik va ro‘zg‘or ishlarida mustaqil qatnasha olgan bo‘lsalarda, jamoada ular sharqona odob-axloq me’yorlari asosida ish olib borganlar.

Balog`at yoshida qizlar ayollarga yaqinla boshlaganlar, ularda dastlabki axloqiy ko‘nikmalar shakllana boshlagan. Shunday qilib mahalla tarbiya maskani, urf-odat va an’analar, o‘ziga xos turmush-tarzi shakllangan joy sanalgan. Tadqiqotlar jamoa bolalarni bir-biriga oqibatli, ko‘makdosh qilishda, barchaga xususan, kattalarga o‘zaro yaqinlardek muomalada bo‘lishga undaganligini ko‘rsatdi.

Bugungi kunda mahalla davlat boshqaruving dastlabki bo‘g‘ini sifatida, xalqimizning, ayniqsa yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutmoqda. Mahallalarda bolalarning xulq-atvori, hatti-harakatlari doimo qo‘ni-qo‘shnilar nazoratida bo‘lishi, bunda ayniqsa, boy, hayotiy tajribaga ega bo‘lgan oila boshliqlar, kattalarning ko‘rsatmalari bilan ish tutish talab etilmoqda. Yoshlarda milliy g‘urur, iftixon, vatanparvarlik tuyyularini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish barchamizning muhim

vazifamizdir. Buning uchun mahalla qo‘mitalari, fuqarolar yiyoinalining, xotin-qizlar kengashlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha olib borayotgan faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- 1) oila-mahalla-maktab dasturini amalga oshirishda mahalla ma’muriyati, fuqarolar yiyoinalari, xotin-qizlar kengashlari, mahalla faollari bilan birgalikda, tarbiyaga oid masalalarni yechishda maktab ma’muriyatiga yaqindan ko‘maklashishni kuchaytirishimiz zarur. Chunki mamlakatda ta’lim-tarbiyani zamonaviy talablar darajasida aniq belgilangan maqsad sari yo‘naltirmasdan, yoshlardan muammolari bilan shuyoullanishni yaxshilamasdan turib ko‘zlangan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi;
- 2) mahallalarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish zarur. Tarbiyasi oyoir, maktabdan, ta’lim-tarbiyadan ajralib qolgan yoshlarni mакtabga jalb etish, ko‘rona pul topish ilinjida yurgan bolalar va ularning ota-onalari bilan jamoat joylarida, mahallalarda, huquq-tartibot, adliya organlari vakillari ishtirokida suhbatlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun oila-mahalla aloqalarini mustahkamlash, yoshlarda milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizga nisbatan hurmat hissini, ular ongida milliy g‘urur va iftixon tuyg‘usini shakllantirishni davrni o‘zi taqozo etmoqda;
- 3) ta’lim-tarbiya ishlarida milliy urf-odatlarga e’tiborni kuchaytirish zarur. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos milliy xususiyatlari avvalambor tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu esa millatimiz obro‘sni va nufuzini dunyo miqiyosida oshirishga xizmat qiladi. Buni avvalambor milliy tarbiya an’analarini yoshlardan ongiga singdirishdan boshlash kerak. Bunda o‘zbeklar mahalliy boshqaruvinining negizi mahalla muhim o‘rin tutadi;
- 4) mamlakat va viloyatlar miqyosida «Eng obro‘li, Eng faol mahalla» va mahallada «Eng tartibli oila» tanlovlarni o‘tkazish, ishtirokchilar va yooliblarni modddiy rayobatlantirishni tashqil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki,

bunday tadbirlar oila va mahalla mushtarakligini kuchaytiradi, barcha oila va mahalla a'zolarini o'z jamoasi va vatani uchun faol bo'lishga chaqiradi;

5) mahalla va boshqa jamoatchilik tashqilotlari ish tajribalarini, mavjud muammolar va ularning yechimlarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish, mahallaning nufuzini xalqaro miqiyosda targ'ib qilish, chet ellik olimlar va mutaxassislarni O'zbekistonda mahallalar ish tajribalarini o'rganishga jalg etish zarur deb o'ylaymiz.

Azaldan Sharqda insonning go'zaligi uning odob-axloqi, tarbiyasi bilan o'lchab kelinadi. Inson odob-axloqi, yuksak manaviyati va tarbiyasi bilan boshqa mavjudodlardan, hayvonlardan farq qilib turadi. Kishi qancha yoshga kirmasin, tarbiyaga, odob-axloqqa muhtojdir. Odatda inson tug'ilganidan so'ng odob-axloq, tarbiyani birinchi navbatda asosan oiladan oladi. Oila o'smirni shaxs sifatida o'zligini anglashida, shaxs xususiyatlarini shakllantirishida yordam beradi. Yurtboshimiz I.A. Karimov "Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taminlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishiga bevosita tasir etadigan tarbiya o'chog'idir" degan edi. Oila a'zolari bo'lgan ota-onas, buva-buvilarimizning pand-nasihatlari, yo'l-yo'riqlari va milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz asosida shakllangan halollik-pokizalikka, mehr-muruvatli, mustahkam e'tiqodli bo'lishga, dunyoqarashi, dastlabki ijtimoiy ko'nikmalari shakllanib - tarbiyalanib boradi. Odatlarimizga binoan ertalab "Assalomu-alaykum" deb ota-onas oldiga kirish, ulardan duo olish, dasturxon atrofida yig'ilganda yoshi kattalarni taomlanishni boshlab berishini kutish, yangi ish boshlashdan oldin kattalardan maslahat olish kabi udum va odoblarimiz yoshlar o'rtasida ibrat bo'lib xizmat qiladi. O'zbek oilalarida tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonuniyatlar, axloqiy –manaviy mezonlari bor: kattalar bolalarga, balog'atga yetmagan farzandlarga ochiq holda ko'rinishmaydi, bachkana qiliqlar qilinmaydi, pardasiz so'zlar aytilmaydi. Oilaning to'liq bo'lishi, sog'lom ma'naviy muhitning shakllanganligi, oila a'zolari o'rtasidasi samimiy yaqinlik - ulg'ayotgan o'smirning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqlan va irodaviy jihatdan kuchli, keng dunyoqarash va mustahkam etiqodli bo'lib shakllanishiga bevosita ijtimoiy psixologik omil sifatida tasir etadi.

## **II.BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimiylashuvda maktabgacha ta`lim muassasalarining o`rni.**

### **2.1. Ijtimoiylashuvda maktabgacha ta`lim muassasalarining o`rni.**

Inson shaxsi o‘z mohiyati bilan ijtimoiy zotdir. SHaxsdagi barcha psixik xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbaalari uning tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi determinlashgan (sababiy bog‘liqlikda) bo‘lib ijtimoiy turmush bilan bog‘liqdir. SHaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Bu kelajakda insonning psixik xususiyatlari,

ya'ni uning axloqiy sifatlari, xarakteri, irodaviy xislatlari, qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini tashkil topishiga ta'sir qiladi.

Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo`lib, bu shaxsning uni o`rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o`zlashtirishga moyilligi, o`zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosida insonning tug`ilib, o`zini bevosita o`rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg`ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi.

Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o`chog`i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u erda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalandi, o`sha arning normalari, qadriyatlari va talablari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo`lib etiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sotsializatsiyadan chekinish, undan mahrum bo`lish yoki xulqning tashqi salbiy ta'sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, resotsializatsiya deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o`ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkichnchidan, har tomonlama etuk, barkamol, aqli, soh va salomat shaxs bo`lib etishish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ya'ni, oila va uning sog`lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o`ziga o`xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo`lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo`ysunishga o`rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko`rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo`lsa, uning normativ

ta'siri ham shunchalik samarali bo`ladi. Bunday oilada o`zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o`rgatilgan bo`ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki litseyda o`qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas'uliyat bilan vijdonan bajdaradigan bo`lib, bolalar jamiyatida hamisha o`zining o`rniga ega bo`la oladi. Bunday farzanjdga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustqil fikrli, pok vijdonli inson bo`lib etishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo`lsa, jamiyat ham mustahkam bo`lishini o`zbek xalqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning Vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanadi.

Albatta, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko`rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u erlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (machitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializatsiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o`zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo`lib qolishi mumkin. Olimlar o`tkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning to`rt guruhini ajratganlar:

- ota-onalar o`rtasida murosaning yo`qligi, oilaviy o`zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan ahloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog`lomligi va qonunbuzarligi;
- yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to`laqonli o`sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning etarli emasligi;
  - mакtab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla xududida oila obro`sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil

oila maqomiga egalik;

- global axboratlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog`i orqali bola ongiga etib kelayotgan turli ma'lumot, ig`vo, uydirma, mish-mish, oila qadriyatlariga zid axloq namunalari va boshqalar oxirgi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko`rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasidandir.

Yuqoridagi holatlar ayniqsa, globallashuv davrida oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o`rni nechog`li sezilarli ekanligini isbotlamoqda.

Tobora voyaga yetayotgan bola hayotni oilada anglay boshlaydi. Biz buni tarbiya deb ataymiz . Umuman , muhit deganda nimani tushunish mumkin?

Muhit- bu aniq bir o`ringa ega bo`lgan, shart-sharoiti mavjud yashash uchun qulay bo`lgan joyni bildiradi. Muhit tabiat ,ko`cha –ko`y, joylardagi shart-sharoitni emas, u yerdagi kishilar guruhini ham qamrab oladi. Muhitning sermazmun, ta`sirchan , maqsadli va foydali tomolarini namoyon etish jonsiz buyum va narsalarga emas, balki munosabat va muloqot o`rmatib yashaydigan insonlarga bog`liq. Go`dak rivojlanish davrida ijtimoiylashuv bosqichlarini bosib o`tadi.

“Ijtimoiylashuv ” – bola shaxsiyatining ijtimoiy hayotda sodir bo`ladigan o`zgarishlarga moslashib, jamiyatda “Men” ni tasdiqlab yashashni anglatadi.

Ijtimoiylashuv- bu ikki tomonlama kechadigan jarayon.

Birinchisi inson atrofdagilar bilan aloqa qilish orqali ijtimiy tajribasi oshib boorib muntazam hayotga kirib boorish bo`lsa ,ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish orqali ortirgan tajribasiga tayanib, ijtimoiy hayotda o`zini namoyon etishni bildiradi.

Bola doimo kichik ijtimoiylshuvdan, yani oila muhitidan katta ijtimoiylashuvga ota-onada yordamida chiqadi. Oila muhitidan tashqarida, ko`chaada , ota –onasi bilan mehmonda va boshqa barcha muhitlarda ishtirok etadi. Bunday joylarda kattalar hamda tengurlari munosabatda bo`lib muloqot qiladi. Ota-onada unga hamroh sifatida vaziyatlarga izoh berib turadi, tushunmaganlarini tushuntirib boradi. Oila a`zolari ishtirokida boshqalar bilan bo`lgan muloqot jarayoni – Ijtimoiylashuvning ilk sabog`I hisoblanadi. Bunday vaziyatlardagi begonalar bilan munosabat , muloqot qilish

qidalarini o`rganish , kelishmovchiliklarni hal qilish, o`inlarda ishtirok etish kabi holatlar ijtimoiylashuv ko`nikmalarining shakllanishiga turtki bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim muassasalardagi Ijtimoiylashuvga yordam beruvchi muhitning asosiy jihatni bolaning tengqurlari bilan bo`lgan munosabatida ko`rinadi.

Bog`chada bolaning o`z tengqurlariga murojat qilish ehtiyoji paydo bo`ladi.

Yaqinlaridan yiroqda bo`lganida unga yordamchi sifatida tendoshlari , yani Ijtimoiylashuv ko`nikmalarini egallayotgan bola kafolat sifatida qatnashadi. Tengquri o`z oilasida olgan barcha ko`nikmalarini bola bilan o`rtoqlashadi va muloqot jarayoni o`z-o`zidan sodir bo`ladi.bunda bola mustaqil ravishda hayajo va qo`rquvni to`g`ri yonaltirishga , ichki kechinmalarini nazorat qilishga, tendoshlari bilan umumiy til topishishga , manfaatlarini himoya qilishga , tarbiyachidan yordam so`rashga to`g`ri keladiganvaziyatlarni boshidan kechiradi. Bularning barchasiga bolaning oilada tayyorlab , o`rgatish va ko`nktirish lozim. Psixologik muhit bolaga ma`qul kelmasa va bunga tayyor bo`lmasa, unda ruhiy tushkunlik , psixikasiga salbiy ta`sir etish holatlari yuz beradi. Shu sababli bolalarning bogcha muhitiga ko`nikish davri turlicha kechadi. Shunday vaqtda maktabgacha ta`lim muassasasi pedagoglari kasbiy mahoratlarini ishga soladilar.

Pedagoglar bolaning ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish uchun nimalar qilishlari lozim:

Bolaning harakatlarini muntazam muhokama qilib, tahlil qilish;

Turli insonlar o`rtasidagi o`xshashlikni o`rgatish;

Bolalarga hamkorlik va o`zaro yordam berish fazilatlarini;

Biz uchun tarbiya nima degani? Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har-xilturlariga jalbqilinadi (o`yin, mehnat, o`quv, sportvab) va muloqotga kiradi (ota-on, tengdoshlar, begonakishilarvab. bilan). Bundau o`ziga xos bo`lgan faollikni namoyon etadi. Bumuayyanbirijtimoiytajribaniegallashgayordamberadi.

Shaxs rivojlanishining har-bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo`ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Inson tug`ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega.

Bolar ivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiytabiatga ega bo‘lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e’tiborga olish lozim. Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizmi va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi omillar bo‘lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

SHunday bolalar uchun muloqotda bo‘lish jamiyatga “kirish” ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagogla rshug‘ullanadi.

### Ijtimoiy omillar

Inson bo‘lib etishish uchun faqatgina biologic irsiyatning o‘zi kifoyaemas.

Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya’ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sirda shaxs bo‘lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma’naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo‘laolmaydi. Bu fikrni barchaga ma’lum hollar, ya’ni inson bolasi hayvonla rorasida o‘sgani yanada mustahkamlaydi.

Sotsializatsiya – uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va o‘smirlikda jadal kechadi

Bola sotsializatsiyasi jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan o‘zarota’sirda sodir bo‘ladi.

Shaxs sotsializatsiyasining makro (grekchamacros “katta”), mezo – (mesos “o‘rta”) vamikro (micros “kichik”) omillarinifarqlaydilar.

Mikroomillar – insonyashaydiganmamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviyplanetarjarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiyvab.

Mezo omillar – etnik ko‘rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabulqilishi, insonlarning o‘zeposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta’siri; yashaydigan joy turi (shahar, tumanmarkazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari vab.

Mikro omillar -yaqingina makонни va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va boshqalar. Mana shu yaqingina muhitni,

ya’ni bola o’sadigan muhitni sotsium yoki mikro sotsium debatashadi. Sotsium (yaqinmuhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega.Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-seokino‘zlashtiradi.Boshidau (bola), asosan, oilada rivojlanadi, so‘ng yangi muhitlarni io‘zlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o‘rtoqlar davrasи, diskotekalarvah.k. Yosh o‘tgan sari bola tomonidan o‘zlashtirilgan ijtimoiymuhit “hududi” tobora kengayib boradi.Sotsiumda inson munosabatlari va hayoti ijtimoiy shart-sharoitlar o‘zaro ta’sir xususiyatig aega. Muhit – bunafaqtko‘cha, uy va buyumlar. Muhit – bu yana o‘ziga xos munosabat va qoidalar o‘ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo‘lgan turli xil insonlar birligi. Shuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir o‘ziniki olib kiradi, ma’lum bir darajada unga ta’sir qiladi, unio‘zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta’sir ko‘rsatadi, unga o‘z talablarini qo‘yadi.

Muhitning insonga bo‘lgan munosabati shu bilan aniqlanadiki, uning o‘zini tutishi qanchalik muhit ishonchiga to‘g‘ri keladi. Insonning o‘zini tutishi ko‘p holda jamiyatda u qanday o‘rinni egallashi bilan aniqlanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha o‘rinlarni egallashi mumkin.Masalan, ayol kishi o‘qituvchi, rafiqqa, ona, qizbo‘lishi mumkin. Har bir tutgan o‘rin insonga muayyan bir talablarni qo‘yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o‘zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi.

Ba’zi bir maqomlar bizga tug‘ilishimizdan beriladi. Inson maqomi jinsi, millati, tug‘ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillardan kelib chiqadi. Bunday maqomlar tug‘ma yoki berilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o‘zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko‘ra erishgani bilan aniqlanadi.Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy ta’lim yurtida o‘qigani va diplom olgani uchun oladi.

Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi.

Maqom insonning jamiyatda o‘zini tutishini aniqlaydi.Ma’lum bir vaziyatlarda shaxs o‘zini istaganicha emas, balki o‘z maqomiga ko‘ra tutadi. Atrofidagi insonlar

undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya’ni inson muayyan bir rolni o‘ynashga majbur. Shuning uchun, inson maqomidan kelib chiqqan kutilayotgan intizom ijtimoiy rol deb ataladi.

Jamiyatda nafaqat u (jamiyat) bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me’yor va qadriyatlarga to‘g‘ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o‘zlashtirish mumkin.

Pozitivrolli: oilaa’zosi (otavaona, buvavabuvi, o‘g‘ilyokiqiz, akavasingil, nevaravab.), jamoaa’zosi (o‘quvchi, o‘rtoq, do‘s, etakchivab.), iste’molchi (insongaovqat, kiyim, oyoqkiyimvab.), fuqaro (Vatannisevadi, ubilanfaxrlanadi, vatanparvarbo‘lish), mutaxassis (o‘qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandisvab.).

## **2.2. Yoshlarning ijtimoiylashuvini shakllanishida ijtimoiy psixologik omillar.**

Bola ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni berish va ijtimoiymalakavako‘nikmalarnishakllantirishmaqsadgaqaratilganjarayonijtimoiyo‘qit ishdebataladi. Bugungi kunda ta’limning mazmuni O’zbekiston Respublikasining “ta’lim to‘g‘risidagi konuni va “Kadirlar tayyorlash milliy dasturi” da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta’lim mazmuni jamiyat umumiy o’rta ta’lim olidga ko’ylgan talab – buyurtma asosida belgilanishi kerak. YA’ni shakllanayotgan inson nimani bilishi, o’rganishi, qanday insoniy fazilatlarga ega bo’lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak. Ta’lim jarayoni o‘quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta’lim mazmunini belgilashga, ta’lim olishga yordam beradi. Xozirgi kunda an’anaviy maktabda asasiy e’tibor bilimlarni o‘zlashtirishga, ko’nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu o’quv – tarbiya tashkil etish tajribasini eng zaif tomonidir. Ma’lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta’lim jarayonini tashkil etish yo’li bilangini xar tamonlama rivojlangan yoshlarni etishtirib chiqarish mumkin.

Bugungi kunda o’rta maxsus, kasb-xunar ta’limining asosiy mazmuni uning vazifalarini belgilab beradi. Asosiy vazifalarga aqliy –intelektual, ma’naviy-madaniy, aqliy, ruxiy, jismoniy tarbiya bilan bog’liq bo’lgan muhim vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, kasb-kor ko’nikamlari hamda ular bilan bog’liq bo’lgan malaka va ko’nikmalar bilan kurollantirish ajdodlarimiz qoldirga tarixiy va ma’daniy qadriyatlarga hayotni ma’nosи, jamiyatda insonning tutgan o’rni, ta’lim- tarbiyasi, odab-axloqi haqidagi xikmatli fikrlar borki, bular bugungi ta’lim taraqqiyoti uchun va o’rta maxsus kasb – xunar ta’limi pedagogikasini rivojlantiradi va yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, iymon-e’tiqod, muruvvat, vatanparvarlik mehnatsevarlik, millatlararo do’stlik munosabatlari, qaxramonlik, mardlik singari tuyg’ularni tarbiyalaydi.

Uning samarali ishlari fakultet va Oliy o’quv yurti jamoasining tashkiliy va tarbiyaviy ishlarning qay darajada uyushtirilganligiga bog’liq. Agar Oliy o’quv yurtining faoliyatida yagona tartib-intizom, yagona reja mavjud bo’lmasa, ayrim guruhning faoliyati samarali bo’lishi juda qiyin. Umumiy jamoada ishlarning tashkil etilishi boshlang’ich jamoaning faoliyatini belgilaydi, unga ta’sir etadi, chunki boshlang’ich jamoaning faoliyatining aniq ifodasidir. Umumiy jamoaning barcha yutuqlari, shuningdek, uning faoliyatidagi ba’zi kamchiliklar boshlang’ich jamoa va uning ayrim a’zolari faoliyatiga ta’sir o’tkazadi. SHunig uchun ham boshlang’ich jamoadagi tarbiyaviy ishlarni yaxshilash uchun jiddiy kirishish umumiy jamoa yaratish soxasidagi ishlarni kuchaytirishni talab etadi. Oliy o’quv yurtidagi barcha ishlarni izchil, rejali, umumiy maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi, boshlag’ich jamoa va uning faoliyatining sermazmun bo’lishi uchun zaruriy shartdir. Guruhning ish rejasi xar qandiy mukammal o’ylab tuzilgan bo’lsa ham, uni amalga oshirish uchun xar qanday faol qirishilsa ham baribir, agar oliy o’quv yurtidagi ishlarning umumiy rejasiga asoslanmagan bo’lsa, kutilgan natijaga erishib bo’lmaydi. Kishilarni rasmiy ravishda ma’lum gurahga to’plash bilan jamoa xosil bo’lmaydi. Garahga to’plangan odamlar jamoa tashkil qilishi uchun ular o’rtasida o’zaro mustahkam ma’naviy-ruxiy alaqalar barqaror bo’lishi lozim. Boshqacha aytganda ob’ektiv ijtimoiy faoliyat va demokratik boshqaruv asosida guruhdagi kishilarni bir – biriga maxkam

birlashtiradigan, ularning xatti-xarakatlarini tartibga soladigan va ma’naviy o’sishiga, rivojlanishiga imkon beradigan xolat vujudga kelgan tagdirdagina jamoa yaratish mumkin

Zamon talablari darajasida yaxshi tashkil qilingan jamoa o’quvchilaridan shaxslik sifatlarini hamda ularda ma’naviyatlilik, madaniyatlilik, intelektuallikni, ijodiy sermaxsul faoliyat yuritish qobiliyatini, keng dunyoqarashni yaxlit tarzda rivojlantirishni nazarda tutishini ko’rsatgan holda bitiruv –malaka ishining dolzarbilgini asoslash mumkin.

Tadqiqotni maqsadi: Kasb-xunar kolleji talabalarini jamoada tarbiyalash asosila ularning ijtimoiy sifatlarni shakllantirishning uslub va vositalarni tadqiq qilish;

O’quvchilar jamosaini tarbiyalash va rivojlantirishga, takomillashtirishga qaratilgan innavatsion texnologiyalarni tadqiq qilish. Kasb – xunar kolleji o’quvchilarida mukammal egallagan, vatanparvar, ijtimoiy faol fuqarolik pazitsiyasini shakllantirish; ularda, jamoada xamkorlikda mexnat qilish, o’z faoliyatini ijodiy rivojlantirish, umumiylar yo’lida intelektual, ma’daniy va ma’naviy imkoniyatlarni birlashtirish; yuqori potentsiolga ega faol shaxslarni tarbiyalash jarayonini nazariy va amaliy tadqiq qilish va xulosalarni umumlashtirish.

Jamoa (lotincha “kollektius” so’zining tarjimasi bo’lib, yig’ilma, ammo, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) birnecha a’zolardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiylar yo’lida intelektual, ma’daniy va ma’naviy imkoniyatlarni birlashtirish; yuqori potentsiolga ega faol shaxslarni tarbiyalash jarayonini nazariy va amaliy tadqiq qilish va xulosalarni umumlashtirish.

Zamonaviy talqinda jamoa tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan-Jamoa deganda birnecha kishilarning muayyan maqsad yo’lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruh tushuniladi (masala ishlab chiqarish jamosai, zavod jamoasi, o’quv yurti jamoasi, xo’jalik jamoasi vax.k.)(15.68). ikkinchidan jamoa deganda uyushtirilgan gurah tushuniladi.CHunonchi o’quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma xisoblanadi. (15.68) jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi xisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o’z ifodasini topadi. Zero jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida nomayon

bo’lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishlarida o’zaro birlik uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi. Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan aloqadorlikda mavjud bo’ldai. Muayyan jamoaning har bir a’zosi jimiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o’z munosabatlari bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoa a’zolarining intilishlarini tushunish, jamoa oldigan qo’yilgan maqsad moxiyatini chuqur zis etish hamda uning shaxsini shakllantirishdagi o’rni va rolini to’g’ri baxolay olish jamoa a’zolarining umumiy va xususiy maqsad, qiziqishi, extiyoj va faoliyatlar o’rtasidagi birlikni namoyon e’tadi. Xamda jamoaning bo’linishiga yo’l qo’ymaydi. Har bir jamoada o’z-o’zini boshqarish o’rniga ega va umumiy jamoaning uzviy qismi hisoblanadi. (8,68) shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog’lanadi.

Ijtimoiy jamiyat extiyojini qondirishga birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g’oyaviy yo’nalishi xam jamoaning faoliyati mazmunida o’z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamo xususiyatlarini aniqlashda guruhning yagona ijtimoiy tizimini o’rnata olishdagi usuli, ya’ni jamoani tashkil qilish usuli xam muhim hisoblanadi. birgalikdagi faoliyat umum jamiyat ishining masuliyat xissini uyg’ota borib, jamoa a’zolarini bir- biriga yaqinlashtiradi, a’zolarda jamoa mansublikxissini uyg’ota borib, ularda jamoa bilan munosabatda bo’lish extiyojini oshiradi. Ushbu munosabat ko’pincha o’z –o’zidan paydo bo’ladi xamda ular o’quvchiga tasir ko’rsatish uchun kerak bo’ladi. Jamoa a’zolari o’rtasidagi ruxiy birlik mazmunini ular xarkteriga bog’liqdir

„Amalga oshirilayotgan isloxaatlarning asosiy maqsadi har bir fuqoraning shxs sifatida shakilanishi uchun, o’z borligicha, o’z bilimini, o’z qobiliytini, o’z talantini ishga solib xayotini yanada yaxshilashi manna boyishi uchun imkoniyatni yartib berishdan iboratdir”.

Jamo ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ishtimoiy xayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari va ifodasini topgan. Zero jamoa jamiyatidagi

mavjud munosabatlar tizimida nomayon bo'lar akan jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishlarida o'zaro birlik, uzbekish yuzaga keladi.

Jamoa- bu insonlar majmuyidir. uning taraqiyoti va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan anashu isloxtalar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiyatga, ular amalgam oshiradigan murakkab ishtimoiy mazmuniga bog'liq. Jamoaning rasmiy (ishonchlik) va norasmiy (hissiy ) tuzilishini bir biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda faoliyatning turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jixatlarni ko'zda tutiladi. Mazkur jixat bir tamondan jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ishchanlik mazmunini ifoda etsa, ikkinchi tamondan raxbarlik vazifasini bajaruvchi shxislar tamonidan jamoa a'zolarining xatti-xarakatlari va intilishlarini muvofiqlashtirish yo'lida tashkil etilayotga faoliyati moxiyatini yoritishda xizmat qiladi. Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasida shaxslar aro manaviy pisixologik munosabatlarning umumiy tizimi va miqroguruhni tashkil etuvchi ayrim azolar o'rtasidagi tanlash munosabatlarning mazmunini ifodalaydi. Jamoaning xar bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. O'quvchilarining jamoadagi o'rni uning shaxs sifatida shakillanishi va kamolatga erishishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki guruhdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda jamoaning rasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'rindi. o'rmini egalagan xoldagina u chinakam oila bo'la oladi. Shuninhdek, norasmiy guruhlar umum jamoa ishtimoiy manfatlar uchun kurashuvchiguruuhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarizda namoyan etishi mumkin.

